



SHIFOKOR

SAMARQAND DAVLAT
TIBBIYOT UNIVERSITETI
NASHRI

SO'ZI

SAMDTU REKTORI XALQARO ANJUMANDA NUTQ SO'ZLADI

2023-yil 20-21 iyun kunlari universitet rektori Jasur Rizayev Sankt-Peterburg stomatologiya Assotsiatsiyasining 30 yilligiga bag'ishlangan "Shimoliy poytaxt stomatologiyasi: fan, ta'lif, amaliyot" X xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasida ishtiroy etdi.

Assotsiatsiyaning yubiley konferensiyasi stomatologiyaning dolzab muammolari, raqamli stomatologiyada kasalliklarni davolash va oldini olishning zamonaliv tendensiyalari va istiqbollariga bag'ishlandi. Shuningdek, "Shimoliy poytaxt stomatologiyasi: fan, ta'lif, amaliyot" X konferensiyasida rektor Jasur Rizayev "O'zbekiston Respublikasi stomatologiyasi tarixi va rivojlanishining istiqbollari" mavzusida ma'ruba qildi.



«YOSHLAR OYLIGI» DOIRASIDA «REKTOR KUBOGI» MUSOBAQALARI O'TKAZILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus doirasida talaba-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish hamda sog'lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida, universitetda sport klub tashabbusi bilan, "Yoshlar oyligi" doirasida, "Biz yangi O'zbekiston yoshlarimiz" shiori ostida, voleybol sport turi bo'yicha "Rektor kubogi" sport musobaqasi o'tkazildi.

Musobaqalarda fakultet talabalarini o'zaro faol bellashdilar va jarayon sport klubi a'zolarini hakamligini baholanib borildi. Musobaqalar natijasiga ko'ra, qizlar o'ttasida 1-o'rin pediatriya fakulteti 2-o'rin farmatsiya fakulteti, 3-o'rin 1-son davolash ishi fakulteti talabalariga. O'g'il bolalar o'ttasida 1-o'rin ordinatura fakulteti, 2-o'rin pediatriya fakulteti, 3-o'rin 2-son davolash ishi fakulteti talabalariga nasib qildi.

Musobaqa g'oliblari universitet rektori tomonidan esdalik sovg'a va diplomlar bilan taqdirlандilar.



REKTOR VA TALABALAR UCHRASHUVI O'TKAZILDI

So'nggi yillarda yurtimizda iqtidorli yoshlarning nufuzli milliy hamda xalqaro olimpiada, musobaqa va tanlovlarda salmoqli natijalarga erishishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Samarqand davlat tibbiyot universitetida ham iqtidorli yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, qo'llab quvvatlash va rag'batlantirilish bo'yicha bir qator ishlar amalgalashmoqda.

22-iyun kuni universitet rektori, professor Jasur Rizayevning bir qator faol talabalar bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi. Jasur Rizayev o'z nutqida yoshlarga yaratilayotgan keng imkoniyatlar hamda mamlakatimiz prezidenti tomonidan olib borilayotgan yoshlar siyosatining o'ziga xos jihatlari xususida to'xtalib o'tdi.

Uchrashuvning tashkiliy qismida 2022/2023 o'quv yilining 2-yarim yilligida «Rektor stipendiyasi»ni qo'lga kiritgan SamDTUNing 45 nafr, Universitet qoshidagi Akademik litseyining 5 nafr hamda Universitet qaramog'idiagi kasb-hunar kollejlari va texnikumlardan 3 nafr o'quvchiga sertifikatlar tantanali ravishda topshirildi.

Shuningdek, Moskvada A.P. Arzamastevning 90-yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan organik kimyo yo'nalishidagi 8-xalqaro olimpiada g'oliblari, "Eng yaxshi talaba-2023" nomli Xalqaro tanlovda g'olib bo'lgan talabalar hamda "TECHNOWAYS" texnologik rivojlanish marafoni g'oliblari ham taqdirlandilar.

Jasur Rizayev talabalarga murojaatida mana shunday xalqaro musobaqalarda ishtiroy etish orqali universitet nufuzini yanada oshirish, universitet fakultetlari haqida ijtimoiy tarmoqlarda kengroq yoritish shuningdek, jamoatchilik nazoratini o'rnatish hamda barcha talabalarni yana faol bo'lishga chorladi.

Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun tashkilashirilayotgan bu kabi tadbirlar ularning ilmiy-ma'rifiy sohalardagi faoliyatlarini oshirishga xizmat qilib, kelajakda yanada yuqori marralarni gallashga undaydi.

BILIM VA TAFAKKURIMIZ – SHU EL UCHUN, SHU YURT UCHUN!

30-iyun Yoshlar kuni munosabati bilan oliy ta'lif muassasalarida "Yoshlar oyligi" doirasida 5-25 iyun kuniga qadar "Bilim va tafakkurimiz – shu el uchun, shu yurt uchun!" shiori ostida festival, loyiha va tadbirlar amalga oshirilishi belgilangan.

Joriy yilning 16-iyun kuni Samarqand davlat tibbiyot universitetida O'zbekiston Yoshlar ittifoqi koordinatorlari tomonidan Yoshlar oyligi doirasida tashkil etilgan "Bilim va tafakkurimiz – shu el uchun, shu yurt uchun" shiori ostida "Eng faol kitobxon" tanlovi tashkil etildi.

Tanlovda o'z ichiga 90 ga yaqin Samarqand OTM talabalari o'tasida uch turda "Men sevgan adib", "Sevimli asarim", "Erkin mavzu" kabi yo'nalishlarda o'zaro bilimlar bellashuvlari bo'lib o'tdi.

Mazkur tanlov yakuniga ko'ra:

- 1-o'rIN sohibi Farmatsiya fakulteti talabasi Karimova Asalxon,
- 2-o'rIN Xalqaro ta'lif fakulteti talabasi Helen Joseph,
- 3-o'rIN Farmatsiya fakulteti talabasi Nazarova Lola g'oliblikni qo'lg'a kiritishdi.

G'oliblarga diplom va kitoblar to'plami topshirildi.

Tanlovda faol qatnashgan talabalar SamDTUning Faxriy yorlig'i bilan e'tirof etildilar.

Qadrl Yoshlar! Yoshlar oyligi doirasidagi tadbirlarda barchangizni faoliyetta chorlaymiz!



MORFOLOGIYA YO'NALISHLARIDA TALABALAR ILMYI KONFERENSIYASI BO'LIB O'TDI

Talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariiga jalb qilish, iqtidorli yoshlarni saralash maqsadida, universitetda morfologiya yo'nalishlarda ta'lif oluvchi talabalar uchun ilmiy konferensiya tashkil etildi.

Mazkur konferensiya Iqtidorli talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi hamda morfologik kafedralar ko'magida tashkil etildi.

Patologik fiziologiya, Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya, OXTA, Gistologiya, sitologiya va embriologiya, odam anatomiysi va fiziologiya yo'nalishlari bo'yicha tashkil etilgan ilmiy anjumanda Universitet talabalari ilmiy ishlari bilan ishtirok etdilar. Sohaga tegishli bir qancha qiziqarli mavzular keng muhokamaga qo'yilib, bahsmunozaralar o'tkazildi. Anjuman davomida talabalar taqdimotlari baholanib borildi, yakunida eng namunali deb baholangan ishlar mualliflari I, II va III darajali diplomlar hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlандilar. O'tkazilgan ilmiy anjuman talaba yoshlar uchun yaxshi taassurot qoldirish bilan birga ular uchun ilk ilmiy tadqiqot maydoni vazifasini ham o'tashga xizmat qildi.



"SHOGIRDLAR – USTOZLARGA" IV XALQARO ILMY-AMALIY KONFERENSIYASI

M.F.Vladimirskiy nomidagi Moskva viloyat ilmiy-tadqiqot klinik instituti (MONIKI) "Shogirdlar – ustozlarga" IV Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tdi. Konferensiya doirasida stomatologik mahorat championati va yosh olimlar konferensiyasi o'tkazildi.

Xalqaro forumda Rossiya va MDH davlatlarining oliy o'quv yurtlari va ilmiy markazlarining stomatologiya sohasidagi yetakchi mutaxassislari ishtirok etdilar. Xalqaro anjumanning faxriy mehmoni sifatida universitet rektori, professor Jasur Alimjanovich Rizaev ishtirok etdi. O'zining "O'zbekiston Respublikasida stomatologiya xizmati" mavzusida tibbiyotning tarkibiy qismi bo'lgan stomatologiyaning rivojlanish tarixi, uning rivojlanishiga turli davr olimlarining qo'shgan hissasi, shuningdek, zamonaqiy stomatologiyani holati, respublikada stomatologiyaning muammolari va istiqbollari batafsil yoritildi. Konferensiya doirasida Jasur Rizayevga M.F.Vladimirskiy nomidagi Moskva viloyat

ilmiy-tadqiqot klinik instituti (MONIKI) "Faxriy professori" unvoni berildi.

Xalqaro konferensiyada ishtirok etish doirasida Jasur Rizaev MONIKI

direktori Konstantin Sobolev bilan ham muzokaralar o'tkazdi. Uchrashuvda ikki tomonlama hamkorlik doirasida amalga oshirilgan ishlar, shuningdek, rejalashtirilgan ikki tomonlama


loyihalar, xususan, klinik ordinaturada stomatologiyada qo'shma yo'nalishini ochish hamda boshqa amaliy ishlar muhokama etildi.



TIBBIY TA'LIM SOHASIDA HAMKORLIK BO'YICHA UCHRASHUVLAR

Rossiya Federatsiyasiga tashrif
doirasida Samarqand davlat tibbiyot
universiteti delegatsiyasi shimoliy poytaxt
– Sankt-Peterburg shahrida bir qator
samarali uchrashuvlari o'tkazdi.

Sankt-Peterburg gubernatorining "Smolniy" davlat qarorgohida, rektor Jasur Rizaev boshchiligidagi SamDTU delegatsiyasining Sankt-Peterburg vitse-gubernatori Oleg Ergashev bilan uchrashuvni bo'lib o'tdi. Uchrashuvda Sog'lqnqi saqlash qo'mitasi raisi Dmitriy Lisovets, I.I.Mechnikov nomidagi Shimoliy-G'arbiy davlat tibbiyot universiteti rektori Sergey Saiganov, SamDTUni akademik litsey va tibbiyot texnikumlari bo'yicha prorektori Aziz Kubaev ham ishtirok etdi.



SAMDTU XODIMLARI KOREYADA SHOSHILINCH

TIBBIY YORDAM BO'YICHA SEMINAR TRENINGLARDA ISHTIROK ETDILAR

Koreya Respublikasi Xalqaro sog'lqnqi saqlash jamg'armasi (KOFIH) bilan hamkorlik memorandumiga muvofiq, Samarqand davlat tibbiyot universitetining anesteziologiya, reanimatsiya va shoshilinch tibbiyot kafedrasi assistenti Sanjar Joniyev va 3-sod ichki kasalliklar kafedrasi tayanch doktoranti Jahongir G'ulomov 2023-yil 22-maydan 3-iyungacha Koreya respublikasida shoshilinch tibbiy yordam bo'yicha seminar treninglarda ishtirok etdilar.

Tashrif davomida SamDTU xodimlari Ajou Universitetining Travma markazi va shoshilinch tibbiy yordam bo'limi, Koreya Milliy Tibbiyot Markazining markazi shoshilinch tibbiy yordam bo'limi, Seul Milliy Universitetining Bundang hospitalda tez va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha yangi davolash usullari va zamonaviy tibbiy asbob uskunalar bilan tanishildi. Shuningdek, Koreya respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga qarashli Guendogi-do milliy xavfsizlik markazi, Incheon yong'inga qarshi kurashish markazing 119-tez tibbiy yordam va sanitari aviatsiya bo'limlariga ham tashrif buyurilib favqulodda vaziyatlarda yordam ko'rsatish taktiklari bilan tanishtirildi.

Seminar-trening yakunida barcha ishtirokchilarga Xalqaro sog'lqnqi saqlash jamg'armasi (KOFIH) tomonidan xalqaro sertifikat va guvohnoma taqdim etildi.

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI VA KO'P TARMOQLI KLINIKASI MUTAXASSISLARINING XALQARO KONGRESSDA ISHTIROKI

2023-yilning 8-11-iyun kunlari Ozarbajjonning Boku shahrida turkiy mamlakatlar nevrologlari o'ttasida tarqoq skleroz kasalliklariga bag'ishlangan navbatdagi V Xalqaro Kongressi bo'lib o'tdi.

Turkiy mamlakatlarning ushbu fan sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar o'ttasida so'nggi ilmiy izlanishlar yutuqlari, tarqoq sklerozni tashxislash va davolashning zamonaviy, ratsional, samarali usullarini amaliyotda qo'llash bilan bog'liq ilmiy almashinuv va hamkorlikni mustahkamlash maqsadida Xalqaro kongress o'tkazildi. Turk dunyosi Xalqaro kongressi 2019-yildan buyon har yili o'tkaziladi. Samarqand davlat tibbiyot universiteti va ko'p tarmoqli klinikasi delegatsiyasi tarkibida davolash ishlari bo'yicha prorektor, klinika bosh vrachi prof. N.Abdullayeva, nevrologiya kafedrasi mudiri – ko'p tarmoqli klinika bosh shifokori o'rinnbosari prof. A.Jurabekova, shuningdek, t.f.d. – dotsentlar S.Hakimova, Sh.Niyazov, t.f.n. – dotsentlar A.Gaybiyev va D.Shamurodova qatnashdilar.

Kongress doirasida turkiy mamlakatlarda tarqoq skleroz kasalligi muammolari ko'rib chiqildi, ushbu patologiya bilan og'igan bermorlarni davolash tajribasi muhokama qilindi.

Prof. N.Abdullayeva va prof. A.Jurabekova tomonidan kongressda "Samarqand viloyatida tarqoq sklerozning epidemiologiyasi, diagnostikasi va davolanishi" mavzusida ma'ruzalar o'qildi. Barcha mutaxassislar muhokamada faol ishtirokidan keyin Xalqaro Kongress yakunida ularga sertifikatlar topshirildi.



Muzokaralar davomida, Sankt-Peterburg bilan sog'lqnqi saqlash va kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlik masalalari muhokama qilindi, xususan, tomonlar Samarqand va Rossiya o'tasidagi tibbiy ta'limga sohasida o'zar hamkorlik sur'atlarini oshirish va kelgusida hamkorlik qilishga tayyor ekanliklarini qayd etdilar. Vitse-gubernator O'.Ergashev Shimoliy poytaxtda tibbiyot va farmatsevtika sanoatining innovatsion klasteri muvaffaqiyatlari rivojlanayotgani, uning korxonalarida 250 turga yaqin dori vositalari, diagnostika va laboratoriya jihozlari, davolash tibbiy asbob-uskunalar, tibbiyot muassasalarini uchun dasturiy ta'minot va ma'lumotlar bazalari ishlab chiqarilayotganini ta'kidladi, o'zbekistonlik hamkasblarini qo'shma ilmiy va ta'limga loyihibarini amalga oshirishga jalb etish, qo'shma tashabbus va takliflarni muhokama qilishdan manfaatdor ekanligini bildirib o'tdi.

Shuningdek, SamDTU delegatsiyasini I.I.Mechnikov nomidagi Shimoliy-G'arbiy davlat tibbiyot universiteti rektori Sergey Saiganov bilan olib borilgan muzokaralarda, mintaqadagi tibbiyot texnikumlарини transformatsiya qilishda Rossiya tomonini ko'maklashishi bo'yicha kompleks choratadbirlarni amalga oshirish bo'yicha ham kelishib olindi.

**Rossiya oliy
o`quv yurtlari
delegatsiyalari
SamDTuga tashrif
buyurishdi**

2-iyun kuni Samarqand davlat tibbiyot universitetiga Rossiya Federatsiyasining bir qator oliy tibbiyot ta`lim muassasalari vakillari tashrif buyurishdi.

Delegatsiya a`zolari 3-4-iyun kunlari Samarqand shahrida bo`lib o`tgan O`zbekiston-Rossiya xalqaro sog`liqni saqlash forumida ishtirok etish uchun tashrif buyurgan.

O`tkazilgan muzokaralar davomida universitet rektori, professor Jasur Rizayev — Ural davlat tibbiyot universiteti, Boshqird davlat tibbiyot universiteti va Belgorod milliy tadqiqot instituti vakillari bilan mavjud hamkorlikning shakllari, erishilgan yutuqlarini muhokama qilishi. Shuningdek, akademik mobililik, aspirantura va doktorantura orqali kadrlar tayyorlash, qo`shma ilmiy loyihalarni amalga oshirish bo`yicha kelgusidagi qo`shma loyihalarning uzoq muddatli rejalar haqida ham kelishib olindi.

Delegatsiyalar universitetning yangi binosida o`quv jarayonni tashkil etilishi va yaratilgan sharoitlar bilan tanishish imkoniga ega bo`ldi.



**VolgDTU vakillarining tashrifi
amalga oshirildi**

3-4-iyun O`zbekiston – Rossiya sog`liqni saqlash forumi doirasida Samarqand davlat tibbiyot universitetiga Volgograd davlat tibbiyot universitetining chet ellik talabalar va xalqaro faoliyat bo`yicha prorektori Dmitriy Mixalchenko tashrif buyurdi.

Tashrif doirasida SamDTU va VolgDTU ta`lim va ilmiy sohalarda hamkorlikda erishilgan natijalar, amalga oshirilgan ilmiy loyihalar, o`qituvchilar va talabalarni akademik mobililik dasturlaridagi ishtiroki masalalari muhokama qilindi. Shu bilan bir qatorda ikkala tomon hali inobatga olinmagan hamkorlik yo`nalishlari mavjud ekanligini ta`kidlab, keng qamrovli hamkorlikni yo`lga qo`yish bo`yicha kelishib oldilar..

Uchrashuv yakunida mehmonga Universitet ramzi tushirilgan esdalik sovg`alar berildi.



**Samarqanda O`zbekiston – Rossiya
xalqaro tibbiyot forumi**

3-4 iyun kunlari Samarqand shahrida O`zbekiston – Rossiya sog`liqni saqlash xalqaro forumi bo`lib o`tdi. Anjumanda Rossiya Federatsiyasi Sog`liqni saqlash vaziri M.Murashko boshchiligidagi delegatsiya a`zolari, ikki mamlakatning yetakchi tibbiyot oliy o`quv yurtlарining rektor va professorlari, nufuzli tibbiyot klinikalar, ilmiy tadqiqot institutlari, ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari, yirik farmatsevtika va tibbiyot kompaniyalari rahbarlari, diplomatik korpus vakillari ishtirok etdi.

O`zbekiston – Rossiya sog`liqni saqlash xalqaro forumi hamkorlikning yangi bosqichi sifatida tarixga muhrlandi. Unda mamlakatlar aro tibbiy hamkorlikni kengaytirish bo`yicha qator muhim masalalar muhokama etildi. Jumladan, mamlakatlarimizning tibbiyot sohasidagi ikki tomonlama hamkorligi doirasida tibbiy ta`limni rivojlantirishga alohida e`tibor qaratib kelinmoqda. Xususan, bugungi kunda yurtimizdagi tibbiyot oliy o`quv muassasalarida Rossiyaning tibbiyot universitetlari bilan hamkorlikda qo`shma ta`lim dasturlari asosida bakalavriat, magistratura va klinik ordinatura yo`nalishi bo`yicha kadrlar tayyorlanmoqda.

Anjumanda bir guruh rossiyalik mutaxassislarga “O`zbekiston Respublikasi sog`liqni saqlash a`lochisi” ko`krak nishoni, tashakkurnomalar va O`zbekiston OTMlarning faxriy professori unvonlari berildi. Jumladan,

I.Kant nomidagi Boltiq federal universiteti rektori Aleksandr Fedorovga Samarqand davlat tibbiyot universitetining “Faxriy professori” unvoni berildi.

Forumda rektor Jasur Rizayev tomonidan Rossiyaning bir qator oliy o`quv yurtlari va tibbiyot muassasalari bilan hamkorlik memorandumlari imzolandi. Jumladan, Altay davlat tibbiyot universiteti, Ural davlat tibbiyot universiteti, Rossiya uzlusiz kasbiy ta`lim tibbiyot akademiyasi, “Medinvest grupp” MChJ, I.M.Sechenov nomidagi Birinchi Moskva davlat tibbiyot universiteti, Boshqird davlat tibbiyot universiteti, A.V.Vishnevskiy nomidagi jarrohlilik Milliy tibbiyot tadqiqot markazi, P.Lumumba nomidagi Rossiya xalqlar do`stligi universiteti, Moskvaning tiklanuvchi davolash markazi bilan imzolangan hamkorlik shartnomalari tomonlar o`rtasida ta`lim va ilmiy sohalardagi imkoniyat eshiklarini ochadi.



**Privoljsk tadqiqot tibbiyot
universiteti bilan hamkorlik
masalalari muhokama qilindi**

“O`zbekiston – Rossiya tibbiyot Forumi” doirasida Samarqand davlat tibbiyot universiteti va ko`plab rossiyalik tibbiyot OTMlari bilan turli sohalarda kelishuvlarga erishildi.

Jumladan, 5-iyun kuni Universitetga ko`p yillik hamkor – Privoljsk tadqiqot tibbiyot universiteti (PIMU) rektori Nikolay Nikolayevich Karyakin tashrif buyurdi. Tashrif doirasida o`tkazilgan muzokaralarda hozirgi kunda SamDTUda Privoljsk tadqiqot tibbiyot universiteti (PIMU) bilan davolash, pediatriya, stomatologiya ishi yo`nalishlari qo`shma ta`lim dasturlarida tahsil olayotgan 200 dan ortiq talabalarni o`quv jarayonini ta`lim sifatini oshirish, talabalarda amaliy ko`nikmalarni shakllantirish uchun ularni klinik amaliyotini kuchaytirish kabi masalalar muhokama qilindi. Shuningdek, SamDTUda onkologik kasalliklarni sun`iy intellekt yordamida erta aniqlash va tashxislash, aholi o`rtasida onkologik kasalliklarni kamaytirishga erishish borasidagi hamkorlikdagi rejalar haqida kelishib olindi.

«BIOLOGIYA VA PARAZITOLOGIYANING DOLZARB MASALALARI»

2023 yilning 2-3 iyun kunlari qadimiy va hamisha navqiron Samarqand shahrida, Samarqand davlat tibbiyot universiteti, uning huzuridagi L.M.Isaev nomidagi mikrobiologiya, virusologiya, yuqumli va parazitar kasalliklar ilmiy-tekshirish instituti va Abu Ali ibn Sino nomidagi Tojik davlat tibbiyot universiteti hamkorligida “Biologiya va parazitologiyani dolzarb masalalari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o’tkazildi.



«ASTMA VA ALLERGIYA: INNOVATSIYALARDAN AMALIYOTGACHA»

2023-yil 29-may kuni — Butunjahon astma va allergiyaga qarshi kurash kuni arafasida, Samarqand davlat tibbiyot universitetida “Astma va allergiya: innovatsiyalardan amaliyotga” nomli Xalqaro ilmiy-amaliy seminari bo’lib o’tdi.

Tadbir SamDTU 1-sonli ichki kasalliklar hamda ftiziatriya va pulmonologiya kafedralari tomonidan tashkil etildi. Xalqaro seminarda, Xalqaro molekulyar allergologiya markazi bilan hamkorlikda allergologiya va immunologiya sohasidagi yetakchi mutaxassislar taklif etildi, shu jumladan — Ella Churikina (Rostov-na-Donu, Rossiya Federatsiyasi), Qimbatkul Osmonboeva (Qorako'l, Qirg'iziston Respublikasi), Gulnora Djambekova (Toshkent, O'zbekiston Respublikasi).

Ochilish marosimida SamDTU ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, 1-son ichki kasalliklar kafedrasi mudiri, tibbiyot fanlari doktori Shuhrat Ziyadullaev kirish so'zi bilan chiqish qilib seminar dolzarbligi va ahamiyatini ta'kidlab o'tdi.

Seminarda allergik kasalliklar patogenezi asoslari, astma va allergiyaning turli shakllarini diagnostika qilish, oldini olish va davolash bo'yicha tavsiyalar muhokama qilindi, shuningdek, sohaga oid innovatsiyalarni amaliy sog'liqni saqlash sohalariga joriy etish bo'yicha mutaxassislar o'tasida keng tajriba almashish amalga oshirildi.



Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman L.M.Isaev nomidagi mikrobiologiya, virusologiya, yuqumli va parazitar kasalliklar ilmiy-tekshirish institutini 100-yillik yubileyiga bag'ishlandi.

Mazkur konferensiya umumbashariy muammo bo'lgan yuqumli va parazitar kasalliklar bilan kurashishga bag'ishlandi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili yer yuzida yurak-qon tomir kasalliklaridan 10 million odam vafot etsa, 17 milliondan ziyod odamlar yuqumli va parazitar kasalliklardan vafot etadi.

Anjuman ishida 10 dan ortiq davlatlar, shu jumladan Koreya Respublikasi, Eron, Ozarbayjon, Belarus, Rossiya, Qirg'iziston, Tojikiston va mamlakatimiz tibbiyot oligohlari va ilmiy-tekshirish markazlarini mutaxassislari ishtirok etdilar.

L.M Isaev nomidagi ilmiy-tekshirish instituti 1923 yilda Samarqand shahrida tashkil etilgan bo'lib respublikamiz va Markaziy Osiyo mintaqasida yuqumli va parazitar kasalliklarni davolashda salmoqli hissa qo'shgan muassasa hisoblanadi. Uning asoschisi — mashhur doktor va shifokor, Davlat mukofoti laureati, O'zbekistonda xizmat qilgan fan arbobi, professor L.M. Isaev (1886-1964). Institut faoliyatining dastlabki kunlaridanoq parazitar va tropik kasalliklarni chuqur va har tomonlama o'rganish, bezgak, rishta va boshqa kasalliklarga qarshi ilmiy, tashkiliy va uslubiy kurash olib bordi. Bugungi kunga kelib, mazkur mashhur markaz tomonidan to'plangan tajriba, ishlab chiqilgan tamoyillar va yondashuvlardan dunyo sog'liqni saqlashida keng qo'llanib kelinmoqda. Xalqaro anjuman ishtirokchilari parazitar kasalliklar diagnostikasi, davolash va oldini olishda yangi yondashuvlar, virusli infeksiyalarni davolashni zamонавиу usullari, yuqumli kasalliklarning dolzab muammolari, Covid-19 va OITS infeksiyasi, yuqumli kasalliklarning klinik jihatlari, diagnostikasi, davolash va oldini olish, veterinariya parazitologiyasi kabi yo'nalishlar doirasida o'z ilmiy taqdimotlari bilan chiqishlar va keng muhokamalar qildilar.

Anjuman arafasi bilan Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori hamda L.M.Isaev nomidagi Mikrobiologiya, virusologiya, yuqumli va parazitar kasalliklar ilmiy-tadqiqot instituti direktori tomonidan O'zbekistonda parazitar kasalliklar muammolari va ularga qarshi kurashish tarixiga bag'ishlangan ilmiy-ommabop nashr chop etildi. Mazkur asar sog'liqni saqlash tashkilotchilari, epidemiologlar, parazitologlar, infektionistlar, pediatrlar, oly o'quv yurtlari o'qituvchilari va talabalari va barcha mazkur masalalar bilan qiziqadigan keng aholi doirasi uchun mo'ljallangan.

“GEMATOLOGIYA VA IMMUNOLOGIYANING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI”

2023-yil 14-iyun kuni universitetda “Gematologiya va immunologiyaning zamonaviy yo'nalishlari” mavzusida ilmiy-amaliy seminar bo'lib o'tdi.

Seminar ishtirokchilariga tabrik so'zlari bilan SamDTU ilmiy bo'limi boshlig'i Antonina Kim va Mindray kompaniyasining MDH mintaqasi bo'yicha bosh direktori Aleksandr Duan (Xitoy) murojaat qildi.

Seminarda sohaning so'nggi tendensiyalari, xususan, immunoximiluminesans tahvilining kompleks yechimi; reproduktiv panelni ko'rib chiqish; oshqozon saratonini erta aniqlash; gematologiyaning zamonaviy muammolarini kompleks hal qilish. Tadbir davomida qizg'in suhbat o'tkazilib, faol ishtirokchilarga esdalik sovg'alari topshirildi.

Seminar ishtirokchilar uchun tajribasini boyitish va diagnostika sohasidagi zamonaviy tendensiyalar haqidagi tushunchalarini kengaytirish imkonini berdi.





GARVARD UNIVERSITETI PROFESSORLARINING SAMDTUGA TASHRIFI

Oxirgi yillarda Samarqand davlat tibbiyot universitetining AQShdagи universitetlar, ilmiy markazlari va klinikalari bilan xalqaro hamkorligi kengaymoqda.

Xususan, Pittsburgh universiteti, Nyu-York universiteti, Olbani universiteti, Webster universiteti, Sent-Luis universitetlari bilan hamkorlik aloqalari o'rnatalgan.

Samarqand davlat tibbiyot universitetiga Garvard universiteti vakillaridan iborat delegatsiyasi tashrif buyurdi: doktor Kerim Munir – Garvard universiteti Boston bolalar kasalxonasining bo'limi boshlig'i, doktor Daniel Vikler – Garvard universitetining Chan jamoat salomatligi mактабининг Global salomatlik va populyatsiya kafedrasini axloq va jamoat salomatligi professori.

Garvard universiteti - Amerikaning eng mashhur va jahoning eng yetakchi uchta universitetdan biri. Tashrif doirasida delegatsiya a'zolarining rektor Jasur Rizaev bilan uchrashuvni o'tkazildi. Muzokaralar davomida respublikada bioetikani fan va amaliy fan sifatida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuv yakuni bo'yicha SamDTU va Garvard universiteti o'ttasida bioetika sohasida qo'shma ilmiy loyihalarni amalga oshirishda hamkorlik qilish to'g'risida kelishuvga erishildi

SHIFOKOR SO'ZI

"PARADONT KASALLIKLARINI DAVOLASHDA AN'ANA VA INNOVATSIYALAR" MAHORAT DARSI

13-iyun kuni universitet stomatologiya fakultetining "Og'iz bo'shilg'i jarrohligi va dental implantologiya" kafedrasida Durr Dental (Germaniya) hamda "De factum Education" o'quv markazi hamkorligida "Paradont kasalliklarini davolashda an'ana va innovatsiyalar" mavzusida mahorat darsi tashkil etildi.

Ma'ruzada stomatologiya fakultetining talabalarini va professor o'qituvchilari ishtirok etdilar.

Mahorat darsining spikeri sifatida chiqish qilgan t.f.n. Yekaterina Loboda ishtirokchilarga paradont kasalliklari etiologiyasi va patogenezi, diagnostikasi, paradont toimasi holatini baholash, "Vector" ultratovush sistemasi, "Vector" ultratovush apparatidan foydalanimish, klinik holatlar muhokamasi haqida ma'lumotlar berib o'tdi.

Ma'ruza so'ngida talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga atroficha javob oldilar.



RUS TILIDA YOZISH ODABI QOIDALARI BO'YICHA AMALIY DARS O'TKAZILDI

16-iyun kuni universitetda akademik harakatchanlik doirasida bo'lib turgan I.N.Ulyanov nomidagi Chuvash davlat universiteti dotsenti A.Yu.Nikitina tomonidan universitet akademik litseyi bitiruvchilari va o'qituvchilari uchun "Rus tilida ish yuritish odobaxloq" mavzusida dars o'tkazildi.

Tinglovchilar rasmiy hujjatlarni tayyorlash asoslari, jumladan, rezyume yoki universitetga xat kabi muhim hujjatlar loyihasini tayyorlash, bank yoki kompaniya rahbariyatiga ish xati yozish va boshqa ko'plab vaziyatlar bilan tanishdilar. Shuningdek, tinglovchilar rus tilida ish xatlarini yozish va rasmiylashtirish, ish yozishmalari qoidalari va uslubini o'rgandilar.

Jonli muloqot hamda boy amaliy materiallar SamDTU qoshidagi akademik litsey o'qituvchilari va o'quvchilari orasida juda iliq qabul qilindi.



DEKAN KUBOGI MUSOBAQALARI

2023-yil 20-iyun kuni SamDTU 1-talabalar turar joyida Yoshlar oyligi doirasi "Bilim va tafakkurimiz — shu el uchun, shu yurt uchun" shiori ostida Pediatriya fakulteti va Pediatriya fakultetiga qarashli Xirurgik kasalliklar kafedrasini bilan hamkorlikda "Zakovat" intellektual o'yinlari bo'yicha dekan kubogi, talaba qizlar o'rtasida "Karving" san'ati bo'yicha bellashuv, sportning tennis, shaxmat turlari bo'yicha musobaqalar tashkillashtirildi.

Zakovat o'yinda fakultetning barcha bosqich talabalaridan tashkil topgan jamoalar ishtirot etishdi. Bellashuvlarda 1, 2, 3 o'rinni egallagan jamoalar, Karving bo'yicha mahoratini ko'ssatgan talaba qizlar va boshqa yo'naliishlarda faol talabalar faxriy yorliqlar va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandilar.

"IBN SINO IZDOSHLARI" TEATR TRUPPASINING SPEKTAKLI VILOYAT MUSIQALI DRAMA TEATRIDA NAMOYISH ETILDI

9 iyun kuni universitetning "Ibn Sino izdoshlari" teatr truppassi tomonidan Samarqand viloyati musiqali drama teatrida Tunjar Jujanning "Ko'chki" spektakli namoyish etildi.



Spektakl namoyishida SamDTU professor o'qituvchilari, ishchi xodimlari, talabari, Samarqand sh. jamoatchiligini vakillari ishtirot etdilar.

Eslatamiz, may oyida oliy ta'lim yurtlari o'rtasida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Madaniyat vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi hamda Yoshlar Ittifoqi hamkorligida tashkil etilgan "Talabalar teatr studiyalari" tanlovida SamDTUning Ibn Sino izdoshlari jamoasi "Ko'chki" dramasiga ishlangan spektakl bilan ishtirot etib, g'oliblikni qo'lg'a kiritgan.

Universitet teatr truppasining ilk mustaqil chiqishlari barchaga manzur bo'ldi, tomoshabinlar spektaklini guldurosi qarsaklar bilan kutib oldilar.

Namoyishdan so'ng, SamDTU rektori Jasur Rizayev jamoa haqida iliq fikrlar aytdilar, "Ibn Sino izdoshlari" talabalar teatr truppasining a'zolariga minnatdorchiliklar bildirib keyingi faoliyatiga muvaffaqiyatlar tiladilar.

TERRORIZM, JINOYATCHILIK VA HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASH BO'YICHA DAVRA SUHBATI

30-may kuni universitetda "Terrorizm va ekstremizm, kiberjinoyatlar, boshqa jinoymatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi kurash va oldini olish" mavzusiga bag'ishlangan davra suhbati bo'lib o'tdi.

Davra suhbatida Samarqand viloyati ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati huquqbuzarliklarga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i A.Donjiyev, Samarqand viloyati ichki ishlar boshqarmasi terrorizmga qarshi kurashish bo'limi xodimi S.Sobirov, universitet yoshlar masalalari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rektor maslahatchisi E.Aripov, ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasini mudiri dos.A.Maxmudova, profilaktika inspektorini O.Eshmurotov hamda talabalar ishtirot etdilar.

Tadbir davomida so'zga chiqqanlar



jinoymatchilik, huquqbuzarliklar va terrorizmga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan profilaktik tadbirlar, kiberjinoyatlar mazmun mohiyati va ulardan saqlanish kabi mavzularda ma'lumotlar berildi, mavzularga oid foto va videolavhalar namoyish etildi. Chiqish qilgan mehmonlar talaba yoshlarni ijtimoiy hayotda faol, yaxshi o'qishga va kelajakda raqobatbardosh malakali mutaxassis bo'lishga chaqirdilar.

Tadbir ishtirotchilari barcha berilgan savollariga atroflicha javoblarni oldilar.



"YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA NURONIYLARNING O'RNI" DAVRA SUHBATI BO'LIB O'TDI

14-iyun kuni universitetda "Yangi O'zbekiston taraqqiyotida nuroniylarning o'rni" mavzusida davra suhbati bo'lib o'tdi. Anjumanda respublika "Nuroniy" jamg'armasi bo'limi boshlig'i, professor N.Musayev, SamDTU ma'muriyati va nuroniylari, professor-o'qtuvchilar va talabalar ishtirot etdilar.

Qutlov so'zi bilan chiqish qilgan universitet rektori Jasur Rizayev yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni aytib, nuroni otaxon va onaxonlarning mavqeysi, islohotlardagi ularning muhim hissasi va rolini ta'kidlab o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-martdag'i "Nuroniylarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning turmush darajasini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori zamirida yurtimizda olib borilayotgan islohotlar inson omiliga qaratilayotgani yaqqol misoli desak mubolog'a bo'lmaydi.

Tadbir davomida Samarqand davlat tibbiyot universiteti va Respublika "Nuroniyalar" jamg'armasi o'rutasida o'zaro hamkorlik to'g'risida memorandum imzolandi. Memorandumga ko'ra kelgusida hamkorlikda aholi salomatligi, yurt ravnaciyo yo'lida birgalikda turlar loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, tadbirda SamDTU faxriyalar kengashi raisi Y.Allayarov, universitet dotsenti N.Sodiqov, xotin-qizlar masalalari bo'yicha rektor maslahatchisi G.Xudoiberdiyeva, professor-o'qtuvchilar o'zlarining hozirda yurtimizda bo'layotgan islohotlar borasida fikr-mulohazalarini aytishdi.

Tadbir so'ngida ko'p yillar davomida davlat va jamiyat hayotida faol, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qo'shgan hissasi uchun bir guruh professor-o'quvchilarga tashakkurnomalar berildi.





СВЕТЛОЙ ПАМЯТИ УЧЕНОГО, НАСТАВНИКА, УЧИТЕЛЯ, ВРАЧА

Ризаев Ж.А., Закирова Н.И., Аллаяров Я.Н.
(К 95-летию со дня рождения выдающегося учёного, основателя акушерской школы, заслуженного деятеля науки Республики Узбекистан, академика АН Республики Узбекистан, доктора медицинских наук, профессора Ислама Захидовича Закирова)

“Врач, оказывающий помощь при родах, должен иметь, помимо необходимых знаний и технических навыков, большую выдержку, хладнокровие, трезво оценивать акушерскую ситуацию и осуществлять все мероприятия, направленные на сохранение жизни матери и ребенка”.

ИСЛАМ ЗАКИРОВ

Родился Ислам Захидович Закиров в г. Самарканде в семье служащего. Школу Ислам Закиров окончил намного раньше своих сверстников, учился на «отлично», активно участвовал во всех мероприятиях. С детских лет мечтал стать врачом, поступил в Самаркандский Медицинский Институт. После окончания СамМИ в 1948 году Ислам Захидович Закиров был оставлен в клинической ординатуре на кафедре акушерства и гинекологии СамМИ. Отец Ислама Закирова сказал мудро: « Если ты спасешь жизнь хотя бы одной женщины, считай, что свою прожил не зря ». Сегодня мы знаем, сколько жизней спас это опытнейший врач, скольким малышам дал жизнь, а женщинам – возможность ощутить радость материнства!

Многие страницы жизни Ислама Захидовича можно начать со слов: «первый, впервые, самый...». Так, он был первым в республике врачом акушером-гинекологом среди мужчин местной национальности, первым в республике поднял такую проблему: «Женщины, ожидающие рождение ребенка, должны наблюдать не в женских консультациях с их узкопрофильностью и маломощной технической базой, а в поликлиниках, по месту жительства», что имеет место сегодня. Необходимо подчеркнуть, что Ислам Закиров в последнем стал также первым и последним академиком по специальности!

Обаяние, природный ум, самодисциплина, стремление познать больше помогли его успешному продвижению. По окончании клинической ординатуры он был избран ассистентом, а после блестящей защиты кандидатской диссертации в 25 лет (1954г) – доцентом данной кафедры, затем успешно защитил в 37 лет докторскую диссертацию и получил учченую степень профессора. Закирову было чуть больше 30ти, когда альма-матер доверила ему, одному из самых лучших питомцев, кафедру акушерства и гинекологии. И это было впервые- ни до, ни после Закирова в столь молодом возрасте такую ответственную должность в СамМИ не получал никто! Руководил он данной кафедрой бессменно 40 лет, сегодня кафедра носит имя И.З.Закирова!

Требовательность к сотрудникам, студентам, чёткость в работе, любовь и уважение

к окружающим и к своему делу, последовательность во всём - этих правил придерживался Ислам Захидович. Был требователен к себе и своим коллегам, всегда принимал участие в трудных операциях, привлекая молодых сотрудников. Был приверженцем классического акушерства, противником частого применения кесарева сечения. На утренних конференциях, которые проводились каждый день с глубочайшим анализом суточного дежурства, разбиралось подробно всё, что было за сутки в клинике. Помимо разборов всех родов, уделялось большое внимание показаниям, технике акушерских и гинекологических операций, тщательно разбирались осложненные роды и гинекологических

разговаривать с больными вселяли уверенность в скором выздоровлении.

Ислам Закиров был созиателем и отдавал все свои силы, энергию и весь свой человеческий талант для нынешних поколений и для будущих, следил за любым сотрудником и все для него были родными. Несмотря на занятость, никогда не отмахивался от человеческих проблем. Атмосфера на кафедре всегда была мирная. Талантливый учёный, он быстро решал сложные вопросы и делал правильные выводы, много работал, мы видели полную самоотдачу, причем радостной. Для нас был примером надежности. С ним было надёжно и удобно работать, всегда любая интересная здравая идея находила поддержку с его стороны. Мало того, он предлагал все усилия к тому, чтобы что - то получилось.

Ислам Закиров в 1995 году был избран действительным членом академии Наук Республики Узбекистан, затем - заслуженным деятелем науки Республики Узбекистан, членом Европейской Ассоциации акушеров – гинекологов, пользовался большим авторитетом в научном мире. Так, на съезде в Алматы профессор Н.А. Каюрова назвала Ислама Захидовича «Авиценной XX века».

Заслуги и достижения Ислама Захидовича велики.

И.З.Закиров впервые в СССР 1958 году организовал специализированное отделение для беременных с болезнью Боткина при инфекционной больнице. Используя современные методики, смог разработать ряд мероприятий по снижению недоношенности, мертворождаемости, материнской и детской смертности.

Благодаря широкой научной эрудиции, его дальновидности, способности поддержать новое, им было положено начало новому направлению - организации научно – исследовательского института акушерства и гинекологии, и это было поддержано государством

Это было вообще в характере И.Закирова – замечать хорошее ,новое. За простоту

и скромность его горячо любили и сотрудники института, академик пользовался общей симпатией и любовью. Главное его человеческое качество – открытость и азартный интерес к жизни, ко всем его разнообразным проявлениям, к каждому конкретному человеку. Это отмечают все, кто хоть ненадолго встречался с ним. Однаково легко общался с людьми, любил дружеские компании, весёлые разговоры, был чрезвычайно деликатным человеком. Многих приглашал к себе домой, подолгу беседовал с ними. При всей академической занятости, он был достаточно простым и скромным человеком , был внимателен к людям, и они часто обращались к нему за помощью и советом. Он никогда не оставлял их в беде. Оказывал материальную и моральную поддержку. Это был воистину мудрый, справедливый и добный человек!!!

Теперь, отмечая 95 –летие со дня рождения Ислама Захидовича Закирова, мы ёщё разубеждаемся, что понесли большую утрату. Однако, жизнь была прожита не зря, он блестяще выполнил свою миссию! Все, что создано за 50 лет практической и научной деятельности Ислама Захидовича и его многочисленными учениками, делалось и делается во имя одного: здоровья женщины, их материнского счастья. Всю свою жизнь И.З.Закиров посвятил людям, среди которых и для которых он жил на Земле, оставил после себя богатое наследие. Сегодня многочисленные ученики И.З.Закирова работают как в нашей стране, так и за её пределами, продолжают дело своего Учителя.

Его нет с нами уже двадцать три года... Да, мы не властны над судьбой, вернуть минувшие дни нельзя. Но мы по-прежнему любим его, храним о нем добрую светлую память!

Tahririyat raisi:
J.A. RIZAYEV

Bosh muharrir:
E.S. TANGIROV

Tahrir hay'ati:

G'.U.Lufulleyev,

S.A.Karabayev,

A.A.Axmedov, J.F.Kadirov,

B.E.To'xtarov, F.A.Daminov,

S.E.Mamaradjabov,

N.M.Shavazi, O.A.Xamidov

SHIFOKOR SO'ZI

Nashr uchun mas'ul:

O. Muratov

Operator va sahifalovchi:

A. Amonov

Fotomuxbir:

O.Axmedov



Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 18.01.2007 y. 09-33 raqami bilan ro'yhatga olingan.

INDEKS: 5539

MANZIL: Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi 18-uy.
Tel: (99866) 233-09-76 Faks: (99866) 233-71-75
e-mail: shifokor@samti.uz, sammi@sammi.uz

Gazeta har oyda bir marta to'liq rangli shaklda chop etiladi va berul tarqatiladi

Gazeta SamDTU bosmaxonasida, ofset usulida chop etiladi.

Nashrga ruxsat berildi: 2023 yil, 24 iyun. Adadi 200 nusxa. Buylurtma: 69